
Sholi yetishtirish bo’yicha xorij tajribasi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida"gi PQ-4973-son qarori ijrosi ta’minlash maqsadida Sholichilik ilmiy-tadqiqot inistitutining Xorazm tajriba stantsiyasida Vetnam qishloq xo’jaligi va qishloqlarni rivojlantirish vazirligiga qarashli Dala ekinlari ilmiy-tadqiqot instituti olimi Pham Van Nghia Vetnam selektsiyasiga mansub 15 ta sholi navini Xorazm viloyatida ilk bor ekib yetishtirish maqsadida o’z tajribasi bilan o’rtoqlashdi.





Ushbu qarorda ko’rsatilgan Xorazm viloyatining tuproq-iqlim sharoitlarida sholining yuqori hosilli xorijiy navlarini sinash va mahalliy sharoitda urug’larini ko’paytirish bo’yicha tajriba sinovlarini amalga oshirish, ishlarni bajarish bo’yicha Xorazm Ma’mun akademiyasi eksperimental bazasida xorijiy sholi navlarini mahalliy sharoitda ko’paytirish va ulardan yuqori hosil beradigan navlarni tanlash bo’yicha dala tajribalarini o’tkazish may oyining boshlariga rejalashtirilgan.